

## O'ZBEKISTON BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA DETSENTRALIZATSIYANI O'RNI

**Hojiakbar Komilov Umidjon o'g'li**

*(Telefon raqam +998998450326)*

*FarDU, tarix fakulteti, 1-kurs talabasi*

*Yo'nalish: ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-fuqarolik yo'nalishi bo'yicha*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada detsentralizatsiya tushunchasi, detsentralizatsiya bo'yicha AQSH hamda Yaponiya tajribasi, O'zbekistonda detsentralizatsiya o'tkazilishining ijobiy taraflari haqida tahliliy fikr yuritilgan.*

### **Kalit so'zlar**

*Markazlashtirmaslik, byurokratiya, Adam Smit, AQSH, Yaponiya, Texas, fiskal detsentralizatsiya, YIM, prefekturalar, Tokio, Toshkent.*

### **Abstract**

*In this article, you can find the answer to the question "What is decentralization and how does it work?". The experience of the United States and Japan in decentralization and, most importantly, the positive aspects of decentralization in Uzbekistan are analyzed.*

### **Key words**

*Decentralization, bureaucracy, Adam Smith, USA, Japan, Texas, fiscal decentralization, GDP, prefectures, Tokyo, Tashkent.*


### **Аннотация**

*В этой статье обсуждается, что такое децентрализация и как она работает. Представлен аналитический обзор опыта США и Японии по децентрализации и, что самое главное, положительные стороны децентрализации в Узбекистане.*

### **Ключевые слова**

*Децентрализация, бюрократия, Адам Смит, США, Япония, Техас, фискальная децентрализация, ВВП, префектуры, Токио, Ташкент.*

Detsentralizatsiya – bu qarorlar qabul qilish bo'yicha vakolat va majburiyatlarni markazdan boshqa tashkilotlarga o'tkazish ya'ni markazlashtirmaslik, bu o'z ichiga ma'muriy va iqtisodiy masalalarni o'z ichiga oladi. Markazlashgan boshqaruv tizimi qaror ijrosida uzoq vaqt oladi hamda markazdagi hukumatni xalqni eshitishga to'sqinlik qiladi shuningdek davlat byudjetini taqsimlashda no'tog'ri qarorlar chiqishiga sabab bo'lishi mumkin, bu va shunga o'xshash muammolarning yechimi bitta Detsentralizatsiyadir keling uni nomarkazlashtirish deya qolamiz. Nomarkazlashtirish qanday ishlashini quyidagi rasmda ko'rishingiz mumkin.



Chap tomondagi rasmda markazlashgan hokimiyat, unda hamma markazga bo'ysunadi va oddiy masalalar ham byurokratik tarzda xal qilinadi, davlat xizmatchilari qaror chiqarishda markazni kutishga majbur ungacha muammo kattalashib bartaraf etilishda qiyinchiliklar tug'diradi.

O'ng tomondagi rasmda esa markazlashmagan hokimiyat, unda muammolar o'z o'rnida xal qilinadi, hali muammo kattalashmasdan. Men faqat qarorlarni misol keltirdim va bu ish bo'yicha tafovutlar ko'p.

Markazlashgan tizim haqida Adam Smit shunday fikrini yozib o'tgan: "Tizim odami o'z takkaburi bo'yicha o'zini dono ko'radi. U xuddi shaxmat taxtasidagi toshlarini qo'li bilan osonlikcha yurgizgani kabi, katta jamiyatning turli xil a'zolarini osonlik bilan boshqarish mumkin deb tasavvur qiladi; u shaxmat taxtasidagi toshlarda ularni qo'l surishidan boshqa harakatlanish printsipi yo'q deb hisoblaydi; biroq, inson jamiyati deb nomlanmish buyuk shaxmat taxtasidagi har bir alohida shaxs, garchi bu qonun chiqaruvchilaristagidan farqli bo'lsa ham, o'z harakatlanish printsipiga ega. Agar bu ikki printsip bir-biriga mos kelsa va bir yo'nalishda harakatlansa, inson jamiyatining o'yini osonlik va uyg'unlik bilan davom etadi va uning baxtli va muvaffaqiyatli bo'lishining ehtimoli katta. Agar ular bir-biriga zid yoki turlicha bo'lsa, o'yin qayg'uli davom etadi, jamiyat esa tartibsizlikning eng yuqori cho'qqisiga yetadi" [1].

Xulosa qilib aytganda markazlashmagan lekin yuqori hokimiyat bilan doimo bir yo'nalishda harakat qiladigan davlat markazlashgan davlatlarga nisbatan 2 barobar tez o'sadi.

Jahon mamlakatlari tarixida AQSh va Yaponiya nomarkazlashtirish islohotlari o'tkazilganligi ma'lumdir. AQSHda nomarkazlashtirish ancha erta boshlangan va buning natijalarini ko'rmaslik mushkul vazifa, har bir shtat o'zining o'ziga xos iqtisodiga ega, misol tariqasida Texas shtati iqtisodiyotini ko'rishimiz mumkin: 2010-yil Texas yalpi ichki mahsuloti 1,207 trillion AQSH dollarini tashkil qilib, AQSH da ikkinchi yuqori ko'rsatgichga ega shtat hisoblanadi [2].

Bu ko'rsatgich jahon iqtisodiyotida 11-12-o'rinlarda turuvchi Hindiston va

Kanada kabi davlatlarning YaIM bilan teng. To'g'ri bunday iqtisodiy qudratga erishishda boshqa ko'plab sabablar mavjud ammo siyosiy va fiskal nomarkazlashtirish bunday natijaga erishish qiyin masala.

Yaponiya nomarkazlashtirish tarixiga nazar solsak, 1970-yillarning Yaponiyadagi energetika inqirozi iqtisodiy sekinlashuvga olib keldi. Vazirlar Mahkamasi davlat tuzilmalari va funksiyalarini tartibga solish masalalarini muhokama qildi, ulardan biri nomarkazlashtirish edi. 1979-yilda Bosh vazir devonining maslahatchisi sifatida Mahalliy boshqaruv tizimini tadqiq qilish kengashi tashkil etildi [3]. 1980-yillarning oxirida Yaponiyaning ko'pikli iqtisodiyoti Tokio va boshqa prefekturalar o'rtasida katta farqni keltirib chiqardi. 1990-yillarning boshlarida ijtimoiy bahslar nomarkazlashtirish jarayonini qo'llab-quvvatladi. Tarafdorlarning fikricha, markazlashtirilgan tizim turli mahalliy jamoalarning turli talablarini qondira olmaydi. Ba'zi mahalliy rahbarlar markaziy hukumatning haddan tashqari aralashuvidan norozilik bildirdilar. Ommaviy axborot vositalari milliy subsidiyalarning behuda sarflanishini tanqid qildilar, chunki juda kichik subsidiyalar olish uchun ariza topshirish ko'p harakat talab qilardi [4]. Keyinchalik bu muammolarni xal qilish uchun 1995-yil iyul-oktyabr oylarida Markazlashtirmaslikni qo'llab-quvvatlash qo'mitasi (DPC) tuzildi [5].

1996-yilda Markazlashtirmaslikni qo'llab-quvvatlash qo'mitasi (DPC) markazlashtirmaslik islohotini amalga oshirishning beshta sababi bo'yicha oraliq hisobotni taqdim etdi. Birinchidan, markazlashgan boshqaruv tizimi tizimli charchoqdan aziyat chekdi va zamonaviy davrga mos kelmadi. Ikkinchidan, markaziy hukumatning xalqaro siyosatdagi rolini aniqlaydi. Uchinchidan, Tokiodagi haddan tashqari zichlik va yerdan nomutanosib foydalanishni tuzatish kerak edi. To'rtinchidan, nomarkazlashtirishni rag'batlantirish mahalliy jamiyatlarga o'zlarining xilma-xil madaniyatlarini namoyish etish imkoniyatini berishi mumkin. Beshinchidan, u ko'proq mahalliy ijodkorlikka ega bo'lishi mumkin. Xulosa "yuqori va bo'ysunuvchi munosabatlar"ni tugatish va "tenglik va hamkorlikka asoslangan munosabatlar" ni boshlash edi [6].

Agar davom etadigan bo'lsak juda ko'p davom etishga to'g'ri keladi, e'tiboringizni sabablariga qaratmoqchi edik bu yerdagi ba'zi muammolar O'zbekistondagilarga o'xshash. Yaponiyadagi islohotlar natijasiga kelsak iqtisodiyot barqaror ravishda o'sib bormoqda, YIM umumiy hajmiga ko'ra jahonda AQSH, Xitoy va Hindistondan keyin to'rtinchi o'rinda [7]. Yaponiya ikkinchi jahon urushidan keyin bu darajaga erishganini hisobga olgan holda bu juda yaxshi ko'rsatkich. Yaponiyadagi tadqiqotchimiz aytganidek viloyatlar o'rtasida dastlab siyosiy so'ngra fiskal nomarkazlashtirish islohoti o'tkazish lozim[8].

Yuqorida aytib o'tgan nomarkazlashtirish islohotlari tajribasi asosida O'zbekistonga tatbiq etish orqali ko'plab muammolarga barham berishimiz mumkin, bularni quyida sanab o'tamiz:

Birinchidan: Toshkentdagi ekologiyani buzilishi, buni yuqorida Tokio misolida ko'rib o'tdik, yaqin kelajakda Toshkent poytaxt bo'lishga yaroqsiz holatga kelishi mumkin buni oldini olish uchun O'zbekiston nomarkazlashtirish islohotiga murojaat qilishi kerak.

Ikkinchidan: Xozirgi kunda Toshkent shahri va viloyatlar o'rtasida YaIM taqsimoti o'rtasida farq kattalashib bormoqda, buni siyosiy va fiskal markazlashtirmaslik islohoti orqali har bir hududni o'ziga xos tarzda rivojlanishiga erishish orqali bartaraf etishimiz

mumkin, xuddi Amerika Qo'shma Shtatlari kabi har bir viloyatimiz kelajakda ma'lum bir yo'nalish bo'yicha kuchliligi bilan ajralib turadi.

Uchinchidan: Siyosiy nomarkazlashtirish viloyatlar o'rtasida raqobat paydo qiladi va fiskal nomarkazlashtirish tufayli viloyatda qoldirilgan byudjet pullarini o'marish hamda korrupsiya holatlarini oldini olgan bo'lamiz.

To'rtinchidan: Har bir hududning ma'sul xizmatchisi o'zining hududidagi muammolarni markazdan ko'ra yaxshiroq biladi, fiskal nomarkazlashtirish bu byudjetni to'g'ri joyga sarflanishini taminlaydi va xalqning davlatdan rozi bo'lib yashashiga olib keladi, muammo tezroq hal qilinadi markashlashgan tizimga nisbatan.

Beshinchidan: Nomarkazlashtirish davlat boshqaruvini ixchamlashtiradi hamda samaradorligini oshiradi. Bu bizga byudjet tomonlama va kadrlarning sifati tomonlama ustunlik beradi.

Xulosa qilib aytganda yuqorida nomarkazlashtirish islohoti AQSH hamda Yaponiya kabi rivojlangan davlatlar iqtisodiyotini yuksalishiga asos bo'ldi. Nomarkazlashtirish nafaqat iqtisodiy balki ijtimoiy va siyosiy jihatdan ham davlatni kuchayishiga olib keladi bundan tashqari fuqarolarning haq-huquqlari to'laqonli ta'minlanishiga zamin yaratadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

- Adam Smith, The Theory of Moral Sentiments, Glasgow Edition of Oxford University Press (Indianapolis: Liberty
- Fund, Inc., [1790] 1976): 233–34. Kitob quyidagi Internet manzilida ham mavjud:
  - [https://www.econlib.org/library/Smith/smMS.html?chapter\\_num=7](https://www.econlib.org/library/Smith/smMS.html?chapter_num=7) - book-reader. ↩
  - “GDP by State”. Greyhill Advisors
  - Aoki 2008 ,p.14.
  - Aoki 2008 , p.16. Aoki, Ichiro (2008). Yaponiyada markazsizlantirish va hukumatlararo moliya (hisobot). Moliya vazirligi Siyosat tadqiqot instituti.
  - Barret 1999 , p. 10. Barret, Brendan FD (1999). “Globallashuv davrida Yaponiyada markazsizlashtirish: siyosiy, vazirliklararo va manfaatlar guruhi muzokaralarining islohotlar jarayoniga ta'siri” (PDF) . UNU/IAS ishchi hujjati . 61 . Birlashgan Millatlar Tashkiloti Universiteti / Ilg'or tadqiqotlar instituti.
  - Ikawa 2008 , p. 12. Ikawa, Xiroshi (2008). Yaponiyada markasizlashtirish islohotining 15 yili (hisobot). Xalqaro aloqalar bo'yicha mahalliy hokimiyatlar kengashi (CLAIR).
  - Qayumov, I.Safarov, V.Fedorko. Yaponiya
  - <https://telegra.ph/Fiskal-decentralizaciya-siyosij-centrazaciyadan-kejin-boshlanishi-kerak-07-01>